

AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENSIYASINING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Sharipjonov Muhiddin Shokirjon o'g'li,
Namangan davlat universiteti dotsenti, PhD
Muhiddin.sharipjonov@gmail.com

Muxtorova Dilfuza Mahmudjon qizi,
Namangan davlat universiteti pedagogika kafedrasida o'qituvchisi
dilfuzamuxtorova37@gmail.uz

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18932692>

Annotatsiya. Mazkur maqolada axborot bilan ishlash kompetensiyasining tarixiy shakllanish jarayoni bosqichma-bosqich tahlil qilinadi. Unda savodxonlik tushunchasidan boshlab, axborot savodxonligi va zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvga bo'lgan evolyutsion rivojlanish yo'li yoritiladi. Shuningdek, axborot bilan ishlash kompetensiyasining ta'lim tizimidagi o'rni va uning pedagogik ahamiyati tarixiy nuqtayi nazardan asoslab beriladi. Mazkur tadqiqot natijalari axborot bilan ishlash kompetensiyasining mazmunini chuqurroq anglash, uni shakllantirishga doir zamonaviy yondashuvlarning manbalarini aniqlash hamda pedagogik amaliyot uchun muhim ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: axborot, savodxonlik, kompetensiya, axborot bilan ishlash kompetensiyasi, raqamli texnologiyalar, tarixiy rivojlanish.

Аннотация. В данной статье поэтапно анализируется исторический процесс формирования компетенции работы с информацией. В ней освещается эволюционный путь развития от понятия грамотности к информационной грамотности и современному компетентностному подходу. Также с исторической точки зрения обосновывается место компетенции работы с информацией в системе образования и её педагогическая значимость.

Результаты исследования позволяют глубже осмыслить содержание компетенции работы с информацией, выявить источники современных подходов к её формированию и сделать научно обоснованные выводы, значимые для педагогической практики.

Ключевые слова: информация, грамотность, компетенция, компетенция работы с информацией, цифровые технологии, историческое развитие.

Abstract. This article analyzes the historical development of information handling competence in a step-by-step manner. It traces the evolutionary progression from the concept of basic literacy to information literacy and further to a modern competency-based approach. In addition, the role of information handling competence in the education system and its pedagogical significance are substantiated from a historical perspective. The findings of the study contribute to a deeper understanding of the content of information handling competence, help identify the origins of contemporary approaches to its formation, and provide scientifically grounded conclusions that are significant for pedagogical practice.

Keywords: information, literacy, competence, information handling competence, digital technologies, historical development.

Kirish. Bugungi kun, shubhasiz, axborot asri deb ataladi. Dunyo aholisi axborotning jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirining tobora ortib borayotgan, axborot oqimi cheksiz darajada kengaygan bir davrda yashamoqda. Ish beruvchilar talabida ma'lumotni izlash, tahlil qilish, baholash va xulosalar chiqarish kabi axborot bilan ishlash kompetensiyalari

asosiy o'ringa chiqmoqda. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, inson kun davomida turli manbalar (televizor, internet, smartfon, reklama, suhbatlar, ijtimoiy tarmoqlar) orqali katta hajmdagi axborotni qabul qiladi, bu esa axborot oqimining jadal ekanini ko'rsatadi. Har daqiqada butun dunyo bo'ylab internetda millionlab so'rovlar amalga oshirilayotgani shaxslar atrofida katta miqdorda axborot almashilishini tasdiqlaydi. Mazkur holatlar zamonaviy hayotning axborot bilan qanchalik zich bog'liqligini ko'rsatadi va kishilardan axborot oqimini boshqarish, noto'g'ri ma'lumotlardan himoyalanih va samarali muloqot qilish ko'nikmalarini talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, axborot bilan ishlash kompetensiyasi bugungi kunda ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda shaxs duch kelayotgan axborot muammolari (axborot ortiqligi, yolg'on axborot, manipulyatsiya) avvalgi davrlarda shakllangan axborot bilan ishlash tajribasining mantiqiy davomidir. Axborotni yaratish, saqlash va uzatish shakllari tarixiy jarayonda og'zaki nutqdan yozuvga, bosma manbalardan raqamli texnologiyalarga qadar rivojlanib borgan. Ushbu kompetensiyaning tarixiy rivojlanishini o'rganish uning hozirgi zamonaviy mazmunini chuqur anglash imkonini beradi. Mavjud ilmiy adabiyotlarda ushbu kompetensiya asosan zamonaviy nuqtayi nazardan tahlil qilinib, uning tarixiy shakllanish jarayoni yetarli darajada tizimli o'rganilmaganligini kuzatishimiz mumkin. Ya'ni, ushbu kompetensiyaning tarixiy shakllanishi va rivojlanish bosqichlari yetarli darajada tizimli tahlil qilinmagan. Bu esa uning bugungi kundagi mazmunini to'liq anglash imkoniyatini cheklaydi. Shu bois mazkur tadqiqotning maqsadi axborot bilan ishlash kompetensiyasining tarixiy rivojlanish bosqichlarini aniqlash hamda ularning shakllanish jarayonini ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda ushbu kompetensiyaning dastlabki shakllaridan boshlab, zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvgacha bo'lgan evolyutsion rivojlanish yo'li o'rganiladi.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: 1. Axborot bilan ishlash kompetensiyasining dastlabki shakllarini tahlil qilish; 2. Tarixiy rivojlanish bosqichlarini aniqlash va tavsiflash; 3. Zamonaviy davrdagi axborot bilan ishlash kompetensiyasining rivojlanish xususiyatlarini o'rganish.

Tadqiqot metodlari. Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy va tarixiy yo'nalishda olib borildi. Tadqiqot jarayonida axborot savodxonligi hamda axborot bilan ishlash kompetensiyasiga oid ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlarning rasmiy hujjatlari (xususan, American Library Association, UNESCO), shuningdek, konferensiya materiallari va normativ hujjatlar tahlil qilindi. Manbalarni tanlashda ularning mavzuga muvofiqligi, ilmiy ahamiyati va tarixiy davrlarni qamrab olish darajasi asosiy mezon sifatida belgilandi. Tadqiqot doirasida 1970-yillardan boshlab hozirgi davrgacha nashr etilgan asosiy ilmiy ishlarga e'tibor qaratildi. Tadqiqotda tarixiy-tahliliy metod yordamida axborot bilan ishlash kompetensiyasining shakllanish bosqichlari aniqlanib, mantiqiy-taqqoslash metodi orqali turli davrlarda berilgan ta'riflar va yondashuvlar o'zaro solishtirildi. Tizimli yondashuv asosida esa ushbu kompetensiyaning tarkibiy jihatlari va

rivojlanish dinamikasi umumlashtirildi. Olingan ma'lumotlar tahliliy-sintez usuli asosida qayta ishlanib, axborot bilan ishlash kompetensiyasining tarixiy rivojlanish bosqichlari izchil ketma-ketlikda tavsiflandi hamda ilmiy xulosalar chiqarildi.

Natijalar. Tadqiqot natijasida axborot bilan ishlash kompetensiyasining tarixiy rivojlanishi izchil evolyutsion jarayon sifatida shakllangani aniqlandi. Ilmiy manbalar tahlili asosida ushbu jarayon 3 ta asosiy bosqichga ajratildi: savodxonlik bosqichi, axborot savodxonligi bosqichi hamda axborot bilan ishlash kompetensiyasi bosqichi.

1-bosqich. Savodxonlik bosqichi (XX asr o'rtalarigacha). Mazkur bosqichda shaxsning asosiy maqsadi matnni o'qish va yozish ko'nikmalarini egallashdan iborat bo'lgan. Axborot bilan ishlash tushunchasi asosan bosma manbalarni o'qish va ulardan foydalanish bilan cheklangan. Ushbu davrda axborotga ega bo'lish uning mazmunini tanqidiy baholashdan ko'ra muhimroq hisoblangan. Natijada savodxonlik shaxsning ijtimoiy hayotdagi faolligini belgilovchi asosiy omil sifatida qaralgan.

2-bosqich. Axborot savodxonligi bosqichi (1970–1990-yillar). Bu davrda axborot hajmining ortishi va kutubxona-resurslarining kengayishi natijasida axborotni faqat o'qish emas, balki uni izlash va tanlash zarurati yuzaga keldi va savodxonlik tushunchasi kengayib, "axborot savodxonligi" atamasi ilmiy muomalaga kiritildi. Ya'ni, 1970-1980-yillar oralig'ida axborot savodxonligi (information literacy) tushunchasi fan sohasida tizimli ravishda rivojlana boshlandi. Ushbu yillarda AQSH ta'lim muassasalari axborot ko'nikmalarini o'quv dasturlariga kiritishni boshladilar. Maqola va konferensiyalarda "information literacy" tushunchasi tarqala boshladi. Sproles, Detmering va Jonson (2013) tomonidan olib borilgan tahlillarga ko'ra, 1980-yillardan 2000-yillarning boshlariga qadar nashr etilgan axborot savodxonligiga oid ilmiy maqolalarning katta qismi ingliz tilida yozilgan. Xususan, ushbu davrda chop etilgan tadqiqotlarning qariyb 90 foizi ingliz tilida e'lon qilingan bo'lib, maqolalarning taxminan yarmi (51 foizi) Amerika Qo'shma Shtatlarida nashr etilgan. Mualliflarning qayd etishicha, axborot savodxonligi mavzusiga bag'ishlangan dastlabki ilmiy maqola 1976-yilda e'lon qilingan. Shunga qaramay, 1990-yillarga qadar ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar soni juda kam bo'lib, jami 8 ta ish bilan cheklangan [1] "Axborot savodxonligi" iborasi birinchi marta 1974-yilda Axborot sanoati assotsiatsiyasi (hozirgi dasturiy ta'minot va axborot sanoati assotsiatsiyasi) prezidenti bo'lgan Paul G. Zurkovski tomonidan Kutubxonalar va axborot fanlari bo'yicha Milliy komissiya nomidan yozgan hisobotida bosma nashrlarda paydo bo'ldi. Axborot savodxonligiga ega shaxslar bilan ushbu ko'nikmalarga ega bo'lmagan shaxslar o'rtasida sezilarli tafovut mavjudligini ko'rsatib bergan [2]. Axborot savodxonligi atamasi ilmiy adabiyotlarda yana 1976-yilda Li Burchina maqolasida uchraydi. U axborot savodxonligini muammolarni hal etish va asoslangan qarorlar qabul qilish jarayonida zarur bo'lgan ma'lumotlarni izlash, tanlash hamda ulardan samarali foydalanishga xizmat qiluvchi ko'nikmalar majmui sifatida talqin etgan [3]. Shu yilning o'zida "Library" jurnalida chop etilgan maqolada M.R. Ouens mazkur tushunchani siyosiy axborot

savodxonligi va fuqarolik mas'uliyati bilan bog'liq holda izohlagan. Unga ko'ra, axborot bilan ishlash savodxonligiga ega bo'lgan saylovchilar ushbu ko'nikmalarga yetarli darajada ega bo'lmagan fuqarolarga nisbatan ongli va asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ko'proq ega bo'ladilar[4]. 1989-yilda axborot savodxonligi tushunchasini shakllantirish va uni ilmiy-amaliy jihatdan asoslashda kutubxonachilar, ayniqsa Amerika Kutubxonalar Assotsiatsiyasi (American Library Association – ALA) hamda uning tarkibida faoliyat yuritgan maxsus tuzilmalar yetakchi rol o'ynadi. Xususan, ALA huzurida tashkil etilgan Prezidentlik Axborot Savodxonligi Qo'mitasi (Presidential Committee on Information Literacy) ushbu yo'nalishda tashabbuskor bo'lib, axborot savodxonligini rasmiy konseptual darajada ilgari surishga katta hissa qo'shdi. Aynan 1989-yilda ALA bu masalani tizimli ravishda rivojlantirish va jamoatchilik e'tiboriga olib chiqish bo'yicha faol harakatlarni boshlab berdi. Mazkur tashabbuslarning mantiqiy davomi sifatida American Library Association (ALA) ta'lim sohasi vakillari hamda kutubxona mutaxassislaridan iborat maxsus ishchi guruhni shakllantirdi va axborot savodxonligi tushunchasiga aniq hamda keng qamrovli ta'rif berdi. Ushbu ta'rifga ko'ra, axborot savodxonligi shaxsning axborotga bo'lgan ehtiyojni anglay olishi, zarur ma'lumotni izlab topishi, uni tanqidiy tahlil qilishi hamda amaliy faoliyatda samarali qo'llay bilish qobiliyatini ifodalaydi (American Library Association – ALA). Hisobotda, shuningdek, axborot savodxon shaxsni tarbiyalash zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri ekani ta'kidlanib, bunday shaxslar umr davomida o'rganish (lifelong learning) kompetensiyasiga ega bo'lishi zarurligi alohida qayd etilgan. Chunki, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish va undan ongli foydalanish ko'nikmalari insonning doimiy ravishda bilimni yangilab borishiga zamin yaratadi. Shuningdek, hisobotda axborotga kirish va undan foydalanish ko'nikmalarining rivojlanishi jamiyatdagi ayrim ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga xizmat qilishi mumkinligi ta'kidlandi. Axborot savodxonligi shaxsga ta'lim, mehnat bozori va fuqarolik faoliyatida teng imkoniyatlardan foydalanish imkonini beradi. Garchi, ushbu hisobotning asosiy e'tibori axborot savodxonligining zarurligini asoslashga qaratilib, berilgan ta'rif nisbatan umumiy xarakterga ega bo'lsa-da, u axborot savodxonligini ta'lim tizimi va davlat siyosati darajasida muhokama etiladigan muhim masalaga aylantirdi.

Shu tariqa, 1989-yilgi ALA tashabbuslari axborot savodxonligini nafaqat kutubxona faoliyatining muhim yo'nalishi, balki ta'lim tizimi va jamiyat rivoji uchun strategik ahamiyatga ega tushuncha sifatida shakllantirdi. Shu hisobotga javoban, 1989-yilda axborot savodxonligini keng miqyosda rivojlantirish va targ'ib qilish maqsadida axborot savodxonligi bo'yicha Milliy Forum (National Forum on Information Literacy) tashkil etildi. Ushbu tashabbusning asosiy maqsadi biznes, davlat boshqaruvi va ta'lim sohalari vakillarini bir platformada birlashtirish orqali axborot savodxonligini nafaqat ta'lim muammosi, balki jamiyatning barcha sohalariga daxldor global masala sifatida ilgari surishdan iborat edi. Axborot savodxonligiga bo'lgan e'tibor kuchaygan sari, uning

mazmuni va aniq ta'rifiga oid ilmiy munozaralar ham davom etaverdi. Xususan, 1989-yilgi LOEX konferensiyasida taqdim etilgan maqolada axborot savodxonligi axborotning jamiyatdagi o'rni va ta'sirini anglash, uni izlab topish, qayta ishlash, qaror qabul qilish jarayonida qo'llash, shuningdek, elektron vositalar orqali yaratish va boshqarish qobiliyatlari majmui sifatida izohlangan [5]. Ushbu ta'rif axborot savodxonligini keng qamrovli va ko'p qirrali ko'nikma sifatida tushunishga zamin yaratdi.

3-bosqich. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi bosqichi (1990-yillardan keying yillar). Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ushbu bosqichda axborot savodxonligi tushunchasi kompetensiyaviy yondashuv bilan boyidi. Endilikda shaxsdan faqat axborotni topish emas, balki uni tanqidiy tahlil qilish, qayta ishlash va qaror qabul qilishda qo'llash talab etila boshlandi. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi ta'lim jarayonining muhim natijalaridan biri sifatida e'tirof etildi va umrbod ta'lim konsepsiyasi bilan uzviy bog'landi. AQSh Mehnat Departamenti (1991) ma'lumotlarni olish, baholash, talqin qilish va yetkazish qobiliyatini ish joyida muvaffaqiyat qozonish uchun asosiy kompetensiyalar qatorida sanab o'tgan[6] Keyinchalik Doyle (1992) axborot savodxonligi bilan tanqidiy fikrlash hamda muammolarni hal qilish ko'nikmalari o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini ilmiy asosda isbotlab berdi [7]. O.B. Zaytseva o'z tadqiqot ishida axborot kompetentligini quyidagicha ta'riflaydi: Axborot kompetentligi — shaxsiy sifatlarning belgilangan to'plami va axborot texnologiyalari sohasida nazariy bilim, amaliy malakalar integratsiyasi asosidagi murakkab individual-psixologik ta'lim[8]. Bu ta'rif axborot bilan ishlashdagi texnik ko'nikmalar bilan birga, axborotni tanqidiy tahlil qilish va uning ijtimoiy-madaniy kontekstda to'g'ri qo'llanishini ham o'z ichiga oladi. Zaytseva axborot kompetentligini shaxsning zamonaviy axborot jamiyatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan keng qamrovli va ko'p qirrali qobiliyatlar majmuasi sifatida ko'radi.

Shuningdek, AQSh Ta'lim Statistika Milliy Markazi (NCES) ham tanqidiy fikrlash, ayniqsa axborotni topish va baholash qobiliyatlarini kollej bitiruvchilari uchun eng muhim ko'nikmalar deb hisoblaydi[9]

2003-yil UNESCO axborot savodxonligini ta'limda rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berdi va hujjatlarni ishlab chiqishda faol ishtirok etdi va bu tushunchaning global miqyosda tan olinishiga turtki berdi.

2005-yil 6-9-noyabr kunlari bo'lib o'tgan Iskandariya deklaratsiyasida bu atama inson huquqlari muammosi sifatida belgilandi: "Axborot savodxonligi hayotning barcha jabhalaridagi odamlarga o'zlarining shaxsiy, ijtimoiy, kasbiy va ta'limiy maqsadlariga erishish uchun ma'lumotni samarali izlash, baholash, foydalanish va yaratish imkoniyatini beradi. Bu raqamli dunyoda asosiy inson huquqidir"[10]deya e'tirof etildi. Yig'ilish ishtirokchilari axborot savodxonligi va uzluksiz ta'lim axborot jamiyatining mayoqlari bo'lib, taraqqiyot, farovonlik va erkinlik yo'llarini yoritib berishini ta'kidladilar[11] Shuningdek, bir qancha ilmiy tadqiqotlar axborot bilan ishlash kompetensiyasini **ko'p komponentli va kompleks tuzilma** sifatida ko'rsatadi. Xususan, Samarawickrema va

Stacey (2007) yondashuvi axborot bilan ishlash kompetensiyasini quyidagi asosiy elementlar orqali tasvirlaydi: **Axborotni aniqlash** – vazifa yoki muammo kontekstida qaysi ma'lumot kerakligini aniqlash; **Axborotni topish** – mavjud resurslar ichidan mos ma'lumotlarni izlash va topish; **Axborotni baholash** – topilgan ma'lumotning aniqligi, ishonchliligi va kontekstga mosligini tahlil qilish; **Axborotni qo'llash** – kontekstga moslab ma'lumotdan samarali va maqsadli foydalanish[12]. Ushbu maqola axborot bilan ishlashni faqat texnik izlash-topish ko'nikmasi sifatida emas, balki **tanqidiy fikrlash, ma'lumotni baholash va muammolarni yechishda faol foydalanish qobiliyati** sifatida qaralishini ko'rsatadi. Julien & Genuis (2011) tadqiqoti shuni ko'rsatadi: o'quvchilarning axborot bilan ishlash ko'nikmalari faqat texnik qobiliyat (ma'lumotni qidirish, topish, saqlash, qo'llash) bilan chegaralanmaydi, balki ularning **axborot madaniyati** darajasi bilan chambarchas bog'liq. Axborot madaniyati esa quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi: **Axborot axloqi** – plagiat va mualliflik huquqi masalalarini bilish va rioya qilish; **Axborotni tanqidiy baholash madaniyati** – manbalarni, ularning aniqligi va ishonchliligini baholash; **Onlayn manbalarni saralash** – internetdagi ma'lumotni ishonchlilik mezonlariga ko'ra tanlash[13]. Natija sifatida aytish mumkin: **axborot bilan ishlash kompetensiyasi** nafaqat texnik bilimlar bilan cheklanishi mumkin emas, balki axborot madaniyati darajasining yuqori bo'lishi ham zarur. Shu nuqtai nazar, kompetensiya shaxsning axborot bilan samarali, etikal va ongli ishlash qobiliyatini to'liq aks ettiradi. **Head (2013)** tadqiqotida axborot bilan ishlash kompetensiyasining o'quvchilar ilmiy natijalari bilan bog'liqligi tahlil qilingan. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, yuqori darajadagi axborot bilan ishlash kompetensiyasiga ega talabalar: yuqori akademik natijalarga erishadi; ilmiy izlanishlarda individual metodlarni muvaffaqiyatli qo'llaydi; mustaqil o'rganish qobiliyatlari kuchli bo'ladi[14].

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, axborot bilan ishlash kompetensiyasi dastlab oddiy savodxonlik darajasida shakllangan bo'lsa, keyinchalik murakkab ijtimoiy va texnologik jarayonlar ta'sirida kengayib borgan. Dastlab axborotni topish, uni eslab qolish va undan foydalanish ko'nikmalari yetarli bo'lgan bo'lsa, bugungi zamonaviy davrda tanqidiy baholash, axborot xavfsizligi va raqamli madaniyat masalalari asosiy ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur tadqiqot natijalari axborot bilan ishlash kompetensiyasining rivojlanishi bosqichma-bosqich va jamiyatning axborot muhitidagi o'zgarishlari bilan uzviy bog'liq ekanini ko'rsatdi. Keltirilgan uch bosqich (savodxonlik → axborot savodxonligi → axborot bilan ishlash kompetensiyasi) bir qator xorijiy tadqiqotlarda keltirilgan yondashuvlar bilan qisman mos keladi, biroq ularni umumlashtirib, tarixiy tizimga solishi bilan farqlanadi. Xususan, Samarawickrema va Stacey (2007) axborot bilan ishlash kompetensiyasini komponentlarga ajratgan bo'lsa, mazkur tadqiqot ushbu komponentlarning paydo bo'lishi tarixiy jarayon ekanini ko'rsatadi. Ya'ni, ushbu tadqiqot mazkur tuzilmaning shakllanish bosqichlarini izohlaydi. Bu holatda kompetensiya tarixiy rivojlangan ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilinmoqda.

Julien va Genuis (2011) axborot bilan ishlash kompetensiyasini axborot madaniyati bilan bog'lagan bo'lsa, ushbu tadqiqot natijalari bu bog'liqlikning evolyutsion asosga ega ekanini ko'rsatadi. Ikkinchi bosqichda axborotni izlash va tanlash ustuvor bo'lgan bo'lsa, uchinchi bosqichda unga axborot axloqi, tanqidiy baholash va ijtimoiy mas'uliyat komponentlari qo'shilgan. Demak, axborot bilan ishlash kompetensiyasi texnik ko'nikmadan ijtimoiy-madaniy kompetensiyaga aylangan.

Head (2013) tomonidan aniqlangan axborot bilan ishlash kompetensiyasi va akademik muvaffaqiyat o'rtasidagi bog'liqlik ushbu tadqiqot natijalari bilan konseptual jihatdan mos keladi. Agar Head talabalarning natijalariga e'tibor qaratgan bo'lsa, mazkur ish bu natijalar shakllanishining tarixiy ildizlarini ko'rsatadi. Shu jihatdan, ushbu tadqiqot Head (2013) xulosalarini nazariy jihatdan mustahkamlaydi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, u axborot bilan ishlash kompetensiyasini alohida pedagogik atama sifatida emas, balki savodxonlikdan boshlangan uzluksiz rivojlanish jarayoni sifatida asoslaydi. Bu yondashuv ta'lim tizimida kompetensiyani shakllantirishni faqat zamonaviy texnologiyalar bilan bog'lamasdan, uni madaniy va tarixiy kontekstda ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari axborot bilan ishlash kompetensiyasining shakllanishi tarixiy jihatdan izchil va bosqichma-bosqich rivojlangan jarayon ekanini ko'rsatdi. Og'zaki nutq davridan boshlab raqamli texnologiyalar davrigacha bo'lgan jarayonda mazkur kompetensiya shakllari takomillashib borgan. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda axborot bilan ishlash kompetensiyasi faqat zamonaviy pedagogik tushuncha sifatida emas, balki tarixiy rivojlangan ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida asoslandi.

Ushbu tadqiqot faqat nazariy manbalar tahliliga asoslangan. Kelgusidagi izlanishlar ushbu tarixiy bosqichlarning hozirgi ta'lim jarayonida qanday namoyon bo'layotganini empirik tadqiqotlar (so'rovnoma, test, kuzatish va eksperiment) asosida o'rganishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, axborot bilan ishlash kompetensiyasining raqamli kompetensiya bilan uzviy aloqasi hamda ularning o'zaro ta'sir mexanizmlarini aniqlash istiqbolli ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi.

Umuman olganda, tadqiqot axborot bilan ishlash kompetensiyasining tarixiy rivojlanishini tizimli yondashuv asosida yoritib, ushbu tushunchaning zamonaviy ta'limdagi o'rnini chuqurroq anglashga xizmat qiladi hamda keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sproles C., Detmering R., Johnson A. M. Trends in the literature on information literacy // Reference Services Review. – 2013. – Vol. 41, № 3. – P. 493–516.
2. Zurkowski, Paul G. (November 1974). The Information Service Environment Relationships and Priorities. Related Paper No. 5 (Report). ERIC ED100391.
3. Behrens, S. J. (2014). "A Conceptual Analysis and Historical Overview of Information Literacy". College & Research Libraries. 55 (4)

4. Behrens, Shirley J. (1 July 1994). "A Conceptual Analysis and Historical Overview of Information Literacy". *College & Research Libraries*. 55 (4): 309–322. doi:10.5860/crl_55_04_309. hdl:2142/41773 27-bet
5. U.S. Department of Labor. (1991). *What work requires of schools: A SCANS report for America 2000*. U.S. Government Printing Office.
6. Olsen J. A., Coons W. B. Information literacy: The case for a new curriculum // *Proceedings of the LOEX Conference*. – Ypsilanti : Eastern Michigan University, 1989. – P. 1–10.
7. Doyle C. S. *Outcome measures for information literacy within the National Education Goals of 1990* : Final report to the National Forum on Information Literacy. – Washington, DC : National Forum on Information Literacy, 1992. – 32 p.
8. Зайцева О.Б. Формирование информационной компетентности будущих учителей средствами инновационных технологий. Дисс. ... канд. пед. наук. - Брянск, 2002, - С. 19.
9. Jones, D. (1995). *Critical thinking and information skills among college graduates*. National Center for Education Statistics.
10. Alexandria Proclamation on Information Literacy and Lifelong Learning, 2005. Information literacy. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. Retrieved from
11. Axborot jamiyati mayoqlari: Axborot savodxonligi va uzluksiz ta'lim bo'yicha Iskandariya deklaratsiyasi. <https://repository.ifla.org/handle/20.500.14598/3147>
12. Samarawickrema, G. & Stacey, E. (2007). *Adapting to changing educational contexts: redesigning fully online courses* // *Distance Education*, 28(1), pp.81–98.
13. Julien, H. & Genuis, S.K. (2011). 'Learning before school: the integration of information literacy into primary schooling' // *Journal of Information Literacy*, 5(2), pp.20–37.
14. Head, A.J. (2013). *Project Information Literacy: What Can Be Learned About the Information Competence of College Students?* // *Library & Information Science Research*, 35(1), pp.1–11.
15. Rustamovich, Q.J. (2024). BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING INNOVATSION KASBIY-KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH. *WORLD OF SCIENCE*, 7(1), 16-19.

